

O'RTA OHANGARON SHAHARLARINING QADIMGI VA O'RTA ASRLARGA OID QABRISTONLARI (SUYURLITEPA YODGORLIGI MISOLIDA)

Ubaydulla ISMOYILOV

Tayanch doktorant

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti

O'zbekiston, Toshkent

ubaydulla.ismoilov.92@mail.ru

Аннотация

Maqolada 2022-2023-yillarda Suyurlitepa yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari o'z aksini topgan. Unda Suyurlitepa o'rnidagi tarixiy shaharning qabriston qismida topilgan III-XIII asrlarga oid 3 xil turdagi qabrlar va qabr-qo'rg'onlar vositasida qabrlarning transformatsiya jarayonlari haqida ma'lumotlar berilgan. Qabrlarni tadqiq etish orqali shahar aholisining ko'mish an'analari, dafn marosimlarining o'ziga xos tomonlari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: Suyurlitepa, suyri, Ertosh-Do'lana, dromos, Qovunchi madaniyati, katakomb qabr, qabr-qo'rg'on, Jetiasar madaniyati, ko'za, qadah-ko'zacha.

КЛАДБИЩА ГОРОДОВ СРЕДНЕГО АХАНГАРАНА, ОТНОСЯЩИЕСЯ К ДРЕВНЕМУ ПЕРИОДУ И СРЕДНЕВЕКОВЬЮ (НА ПРИМЕРЕ ПАМЯТНИКА СУЮРЛИТЕПА)

Убайдулла ИСМОЙИЛОВ

базовый докторант

Институт истории

Академии наук Республики Узбекистан

Узбекистан, Ташкент

ubaydulla.ismoilov.92@mail.ru

Аннотация

В статье отражены результаты археологических исследований, проведенных на территории памятника Суюрлитепа в 2022–2023 гг. Приводятся сведения о процессах трансформации могил посредством изучения 3-х различных типов могил и могил-курганов, относящихся к III-XIII векам, обнаруженных на кладбище исторического города на месте Суюрлитепа. Кроме того, с помощью исследованных могил выявлены погребальные традиции жителей города и особенности погребального обряда.

Ключевые слова: Суюрлитепа, суйри, Эртош-Дулана, дромос, культура Ковунчи, катакомбная могила, могила-курган, культура Жетиасарская культура, кувшин, кувшинчик-кубок.

Tarixni, xususan, odamlarning mafkuraviy qarashlarini tiklashda qadimiy qabr-qo'rg'onlarning o'rni katta. Chunki, bunday yodgorliklar haqidagi ma'lumotlar kamdan-kam hollarda yozma manbalar orqali bizgacha yetib keladi. O'tgan yillar

davomida muallif ishtirokida Ohangaron havzasidagi bir qancha yodgorliklarda arxeologik tadqiqotlar olib borildi. Xususan, Yuqori Ohangaron havzasidagi Ertosh-do'lana qadimiy qabristoni [10;152-163], O'rta Ohangarondagi Suyurlitepa yodgorligining qabriston qismlarida II-XII asrlarga oid qabrlar, qabr-qo'rg'onlar tadqiq etildi (1-rasm).

2022-2023-yillarning bahor va yoz oylari davomida Toshkent viloyati, Ohangaron tumani, Qorabuloq qishlog'idagi Suyurlitepa yodgorligida O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti va Milliy arxeologiya markazi xodimlari tomonidan arxeologik qazishma ishlari olib borildi. Suyurlitepa so'zining asosi "suyri" so'zi hisoblanib, "uchkir", "voronkasimon", "konussimon" tepalik degan ma'noni anglatadi. Yodgorlikdagi qazishma ishlari shaharning arkidan shimoli-g'arbiy tomonda joylashgan nisbatan balandroq tepalikni ochib o'rganishdan boshlandi. Yodgorlik yaqinida istiqomat qiluvchi mahalliy aholi vakillaridan birining, o'tgan asrning 90-yillarida Suyurlitepa g'arbidagi tepalikda yerlar haydalib, suv quyilishi jarayonida ekin maydoni ichida diametri, taxminan, 1,5 metrlik ko'plab cho'kmalar hosil bo'lganligi va shunday cho'kmalardan 2 tasi hozir ham mavjudligi haqidagi ma'lumoti asosida qazishma maydoni boshqa obyektga ko'chirildi.

Shundan keyin ushbu cho'kmalar ochib o'rganildi. Ularning har ikkalasi ham dumaloq shaklda cho'kkan bo'lib, har birining ustiga toshlar uyumi terilgan (2-rasm).

Yakunda ushbu cho'kmalar tagida qadimda odamlar dafn etilgan qabrlar mavjud ekanligi aniq bo'ldi. Ushbu qabrlar quyidagicha tavsiflanadi:

1-qabr. 1-qabr Suyurlitepa arkidan 320 metr g'arbda joylashgan. U kvadrat shakldagi (2,5x2,5 m) shurf tashlash yo'li bilan, yerning ustki sathidan 3,20 metr pastlikkacha qazib ochildi. Qabr sharqdan g'arbga tomon qiya shaklda pastlatib qazib tushilgan (diametri 80 sm) yo'lak orqali yer ostidagi bo'z tuproqning kovlab olinishidan hosil qilingan. U ichki shifti qubba (balandligi 1,6 m), tarxi to'rtburchaksimon (2,9x2,8 m) tuzilishda. Qabrga sharq tomondan kelib tutashgan

yo‘lakning og‘zi ikkita tosh (40x65 sm va 20x40 sm) bilan yopib qo‘yilgan (3-rasm).

Qabr lahadiga bosh tomoniga sopol idishlar terib qo‘yilgan 2 ta marhum dafn etilgan. Ularning suyaklari chirib, kukunga aylanib ketgan. Shu sababli har ikkisinin ham erkak yoki ayol kishiga tegishli ekanligini aniqlash qiyin. Chirigan suyak izlariga qaraganda mayitlardan birining boshi janubga, oyoqlari shimolga qaratilib orqasi bilan uzunasiga yotqizilgan. Uning oyoq tizzalari ikki tomonga chavandoz shaklida ochilgan. Tizzalari yonga bukilgan holatda hisoblanganda uning bo‘yi 170 sm.ni tashkil etadi. Bundan ko‘rinadiki, uning bo‘yi 180 sm.dan kam bo‘lmagan.

2-mayitning boshi sharqqa, oyoqlari g‘arbga uzatilgan. Boshi esa o‘ng tomonga burilgan. Suyak chirindilari izlariga qaraganda bu mayit sohibining bo‘yi 180 sm.ni tashkil etgan.

Har ikki mayitning bosh tomoniga ikkitadan, jami to‘rt dona qo‘lda yasalgan och jigar rangli sopol idishlar terib qo‘yilgan. Ulardan 3 tasi ko‘za, 1 tasi qadah-ko‘zachadir.

Ko‘zalar. Ko‘zalardan tuxumsimon shakldagi yirikrog‘ining yelkasida yarim xalqa shaklidagi dastasi bor. Uning balandligi 36 sm.ni, og‘zining diametri 11 sm.ni, tagining diametri 16,8 sm.ni tashkil qiladi. Qolgan ikkitasining tuzilishi sharsimon bo‘lib, ular og‘zi oddiy shaklda yasalgan 1 yirikroq hajmli ko‘zadan og‘zi suyuqlik quyishga qulay bo‘lishi uchun tarnovsimon shaklda yasalganligi bilan farqlanadi. Ularning ham yelkasida yarim xalqa shaklidagi dastasi bor.

Tarnovsimon og‘izli ko‘zalar deyarli bir xil o‘lchamda. Ulardan birining balandligi 27 sm.ni, og‘zining diametri 10,4 sm.ni, tagining diametri 13,5 sm.ni, ikkinchisining balandligi 26,5 sm.ni, og‘zining diametri 11,4 sm.ni, tagining diametri esa 11,5 sm.ni tashkil etadi.

Qadah-ko‘zacha. Tuzilishi sharsimon, tagi tekis, bo‘g‘zi uzun bo‘lib, bir uchi yelkasiga, ikkinchi uchi esa tanasining keng joyiga ulangan yarim xalqa shaklidagi dastasi bor. Uning balandligi 18 sm.ni, og‘zining diametri 10 sm.ni, tagining diametri 11,5 sm.ni tashkil qiladi.

2-qabr. 2-qabr 1-qabrdan 50 metr shimolda joylashgan. U shimoli-sharqiy va janubi-sharqiy tomoni 2,5 metr va shimoli-g'arb va janubi sharq tomoni 2,3 metr, yerning ustki sathidan 2,7 metr chuqurlikda shurf qazish jarayonida ochildi. Bu qabr ham birinchi qabr bilan bir xil tuzilishda (4-rasm). Qabr lahati tarxi to'rtburchaksimon (2,30x2 metr), ichki tomi qubba shaklida (balandligi 1,5 metr). Qabrga g'arb tomondan diametri 70 sm bo'lgan yo'lak orqali kirilgan. Ushbu qabrda 2 ta mayit dafn qilingan bo'lib, ular bosh tomoni shimolga, oyog'i janubga uzatilib, orqasi bilan yotqizilgan holda dafn qilingan. Birinchi mayit lahatning sharq tomonida qo'yilgan. Uning suyaklari chirib, kukunga aylanib ketgan. Shu sababli uning erkak yoki ayol kishiga tegishli ekanligini aytish qiyin. Ammo kukunga aylangan suyak qoldiqlari izlariga qaraganda uning bo'yi 170-180 sm oralig'ida bo'lgan. 2-mayit esa 1-mayitning o'ng tomoni, ya'ni, g'arbida joylashgan. U erkak kishiga tegishli bo'lib, bo'yi 170 sm.ni tashkil qiladi. Ushbu mayitning o'ng yelkasi yoniga uch dona qo'lda yasalgan sopol buyumlar terib qo'yilgan. Ulardan biri ko'za, ikkitasi qadah-ko'zalardir.

Ko'za. Tagi tekis, tanasi sharsimon, bo'yni kalta bo'lib, yelkasida yarim xalqa shaklidagi dastasi bor. Ko'zaning balandligi 35 sm.ni, og'zining diametri 11,5 sm.ni, tagining diametri 17 sm.ni tashkil qiladi.

Qadah-ko'zachalar. Qadah-ko'zachalarning tuzilishi sharsimon, tagi tekis, bo'g'zi uzun bo'lib, bir uchi yelkasiga, ikkinchi uchi esa tanasining keng joyiga ulangan yarim xalqa shaklidagi dastasi bor. Ulardan birining balandligi 16,5 sm.ni, og'zining diametri 10 sm.ni, tagining diametri 8,5 sm.ni tashkil qiladi. Ikkinchisi birinчисidan biroz kichikroq. Uning balandligi 13,5 sm, og'zining diametri 9,2 sm, tagining diametri 8 sm. Bu qadah-ko'zachaning yelkasi bo'ylab aylanasiga xalqa shaklidagi bo'rtma bezak berilgan.

Yuqorida tavsiflangan qabrlarga o'xshash qabrlar, marhumlarni ko'mish odati va ularning atrofida terib qo'yilgan idishlarga o'xshash buyumlar XIX asrning oxirlaridan boshlab o'rganilib kelinmoqda [8;90-91]. Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida bu kabi ko'mish odati Toshkent vohasi va Janubiy Qozog'istonning qator hududlaridan topilib o'rganilgan [8; 253], [1;223-235],

[2;52-58], [3;542-543], [5;52-57], [6;83-84]. Sopol buyumlar asosan, marhumlarning bosh va oyoq tomoniga qo'yilganligi isbotlangan. Bunday qabrlar va ulardan topilgan ashyolar miloddan avvalgi II asrdan – milodiy VI asrlar bilan davrlashtirilgan, Toshkent vohasida keng yoyilgan Qovunchi (Qovunchi madaniyati – Sirdaryoning o'rta havzalarida (Toshkent vohasi va Janubiy Qozog'iston) miloddan avvalgi II asr – milodiy VI asrga oid arxeologik madaniyat. O'rganilgan joy dastlab Qovunchitepa xarobasi bo'lgani uchun shunday nom olgan. Uni ilk bor arxeolog G.V.Grigoryev 1934-1937-yillarda Toshkent viloyati Yangiyo'l shahri hududida joylashgan Qovunchitepada arxeologik izlanishlar olib borib, uning xalqi qadimgi Toshkentning chorvador va o'troq aholisi qorishuvidan hosil bo'lgan madaniyat, degan xulosaga kelgan) arxeologik madaniyatiga mansub hisoblanadi. Aynan Suyurlitepa yaqinidan topilgan qabr qoldiqlari va sopol idishlari ham Qovunchi madaniyatiga xos sanaladi. Idishlarning yasash odati II asrdan – milodiy IV asrlarda keng tarqalgan [5;52-57]. Xususan, shunga o'xshash qabrlar Toshkent vohasining Piskent, Kavardan [5;30], Taypan [6;32-35], Do'nalabuloq [4;73-83], Turqushn kabi yodgorliklaridan, Yangiyo'l tumani hududlarida aniqlangan bo'lib, bu yerdagi qabrlarda ham yuqoridagi sanalganlarga o'xshashlik kuzatiladi. Xuddi shunday yodgorliklardan chiqqan sopol idishlar, ashyolarni tahlil qilgan V.M.Masson, Y.F.Buryakov [5;283], L.Levina [8;180–181], B.A.Litvinskiy [9;46], S.S.Sorokin [11;134], A.I.Terenojkin [13;81-84], S.P.Tolstov [14;175-176], T.N.Knipovich [7;72], M.I.Filanovich [15;91-124], A.Asqarov, O.Inomov, D.Normurodov kabi arxeolog tadqiqotchilar bunday buyumlarni Qovunchi madaniyatining ikkinchi bosqichi bilan belgilagan. Bularga asoslanib yangi topilgan qabr va undan olingan materiallarni ham Qovunchi madaniyatining II bosqichi, II-IV asrlar bilan davrlashtirish mumkin.

Xullas, bu qabrlarning o'rganilishi o'z davrida Suyurlitepa shahriga asos solgan va u joyda hayot kechirgan aholi vakillarining qabristoni bo'lganligini ko'rsatadi. Ular Qovunchi madaniyatining tarqalish hududini kengaytirib, hali bunday arxeologik yodgorliklarning bir qanchasi yer qarida izsiz saqlanib kelayotganligidan, bu madaniyat vakillarini tog' oldi hududlarida o'z shaharlariga

asos solganligidan dalolat beradi. Suyurlitepa oʻrnidagi shaharning qadimiy aholisi, insonlar narigi dunyoda ham oʻz faoliyatini davom ettirishlariga ishonishgan. Shu maqsadda dafn etilgan mayitlar atrofiga ular foydalangan buyumlarni qoʻshib koʻmishgan.

Bu qabrlarning ust qismida yerdan 80 santimetr pastga tomon qazilganda juda koʻplab islom dini bilan bogʻliq qabrlarga duch kelindi. Musulmonchilikdagi qabrlarning koʻrinishi bizga maʼlum ekanligi, islom dini vakillarining qabrlari ancha vaqtlardan buyon oʻzgarmasdan kelayotganligi, buyumlar qoʻshib koʻmish odatining mavjud emasligi sababli ushbu qabrlar batafsil oʻrganilmadi.

Shunday qilib, Suyurlitepa qabristonidan milodiy III-IV asrlarda va islom dini kirib kelgandan keyingi davrlarda foydalanilganligi aniqlandi. Lekin oʻrtadagi islom dini kirib kelgunga qadar, 200-300-yillik davr qabrlari qaysi hududga qoʻyilgani mavhum boʻlib qolmoqda edi. Nihoyat, bunday davr qabrlari ham uchratildi. Suyurlitepaning eng janubiy chekkasida bir chiziqqa terilgan nisbatan kichikroq tepaliklar koʻpchilikni tashkil etib, qazishmalar jarayonida ulardan ham ikkitasi ochib oʻrganildi. Natijada ularning xom gʻishtdan sunʼiy tarzda maxsus qurilganligi aniqlandi. Gʻishtlarning oʻlchamlari 50x25-30x10-12 sm. Tepalik oʻrnida uzun yoʻlak va unga tutashgan supadan iborat inshoot oʻrni ochildi. Yoʻlakdan kiraverish qismiga toshlar terib yopib tashlangan. Ikkinchi qoʻrgʻonda ham xuddi shu holat takrorlanadi. Har ikki qabrdagi supaning ust qismi va yoʻlak ichiga mayitlar betartib tarzda dafn etilgan boʻlib, u yerdan oynaxona, bakal, xum kabi sopol idishlar bilan birgalikda tosh tumorlar, soch toʻgʻnogʻich va temir toʻqalar buyumlar, taqinchoq va idishlarga qarab ular mozor-qoʻrgʻonlar oʻrni ekanligini aytish mumkin. Bunday mozor-qoʻrgʻonlar Janubiy Qozogʻiston hududlaridan juda koʻplab topilgan [12;40-55].

Ularda aniqlanishicha bunday qoʻrgʻonlarning tashqi kontur boʻylab oʻlchamlari 4-5x4-5 metrni tashkil qiladi. Kvadrat shaklda. Uzun (3-3,5 m) tor (0,7-0,9 m) gumbazli yoʻlak koʻrinishidagi ichki xonaga kirish qismi janubi-sharqiy devorning oʻrtasida joylashgan. Suyurlitepada uchratilgan qoʻrgʻonlarning kirish

qismi esa shimol tarafda joylashgan. Lekin o'lchamlari Qozog'iston hududlaridan uchratilganlari bilan bir xil. Ko'milganlarning qoldiqlari kamera ichida va koridorda mayitlarning soni 3 dan 25 gacha bo'lganligi qayd etilgan. Taxminimizcha, qo'rg'on to'rida supadagi mayitlar qadimiyroq. Keyingi murdalarni qo'yish jarayonida supa to'lgan taqdirda, yo'lak ichiga ham tashlab ketilgan. Shunga o'xshash qabr-qo'rg'onlar A.G.Maksimova tomonidan VII–VIII asrning dastlabki choragining oxirigacha bo'lgan vaqt bilan davrlashtirilgan. Mozor-qo'rg'onlarda Jetiasar madaniyatining mozor-qo'rg'onlariga o'xshashlik kuzatiladi. Jetiasar madaniyati miloddan avvalgi VII – milodiy VII asrlar bilan davrlashtirilgan (5-rasm).

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Suyurlitepa o'rnidagi shaharning dastlabki aholisi milodiy II-IV asrlarda ushbu hududlarni o'zlashtirganlar. Vaqtlar o'tishi bilan ularning qabrlarining tuzilishi transformatsiya jarayoniga uchrab, shaklini o'zgartirgan. Albatta, bunga boshqa xalqlar bilan aloqalar, bosqinlar, madaniyatlar almashinuvi sabab bo'ladi. Qabrlar tuzilishi, ko'mish an'analari, dafn marosimlarida tub burilish islom dini kirib kelgandan so'ng sodir bo'ldi. Katakomb tipidagi qabrlar ustidan musulmonchilik qabrlarining joylashuvi jarayoni Yuqori Ohangaron havzasidagi Ertosh-Do'lana mozor qo'rg'onida ham kuzatiladi. Faqat u yerdagi musulmon qabrlaridagi tobutlar Suyurlitepadagi qabrlar singari g'ishtdan emas, balki toshlardan terib yasalgan [10;154]. Suyurlitepa qabristonidagi yana bir e'tiborli jihati shundaki, bugungi kunda ham ushbu joy zamonaviy qabriston uchun tanlab qo'yilgan. Yaqin yillarda Sanam va Qorabuloq qishlog'ining aholisi o'z mayitlarini ana shu qabristonga ko'ma boshlaganlar.

Bu ma'lumotlar eski qabriston ustiga yangi mayitlar qo'yish an'anasi azaldan davom etib kelayotganligini ko'rsatadi.




1-rasm. Suyurlitepa yodgorligining «Google earth» dasturida yordamida yuqoridan olingan umumiy ko'rinishi.




2-rasm. Suyurlitepa qabristonida
uchratilgan cho'kmalardan biri va
uning tozalangandan keyingi
ko'rinishi



3-rasm. 1-qabrning yuqoridan ko‘rinishi va unga kirish eshigi



4-rasm. 2-qabr va uning chizmasi.



5-rasm. Suyurlitepa janubidagi qabr-qo'rg'onlardan birining surati va chizmasi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Агзамходжаев Т. Раскопки погребальных курганов близ станции Вревской // ИМКУ. Вып. 2. – Ташкент, 1961. – С. 223-235.
2. Алимов К. Памятники скотоводов Чача (Курганы каунчинской культуры в окрестностях Кавардана) // Древняя и средневековая культура Чача. – Ташкент: Фан, 1979. – С. 52-58.
3. Алимов У., Алимов К. Раскопки погребальных сооружений в Ташкентской области // АО-1978. – Москва, 1979. – С. 542-543.
4. Аскарлов А., Инамов О., Исабеков Б. Комплекс погребальных памятников “Дуланабулак» в верховьях реки Ахангарана и его изучение // Традиции Востока и Запада в античной культуре Средней Азии, – Ташкент, 2010. – С. 73-83.
5. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы города и городской культуры Ташкентского оазиса. – Ташкент: Фан, 1982.
6. Исабеков Б.И. “Қовунчи маданияти этник гурухлари Чотқол ва Қурама тоғ чўққиларида // ЎзМУ хабарлари, 2018. – №1/2. – Б. 32-35.
7. Книпович Т.Н. Некоторые вопросы датировки среднеазиатской керамики домусульманского периода // КСИИМК. – Москва–Ленинград, 1948. – № 28.
8. Левина Л.М. Керамика Нижней и Средней Сырдарьи в I тыс. н. э. – Москва, 1971.
9. Литвинский Б.А. Кангуйско сарматский фарн. – Душанбе, 1968.
10. Матякубов Х., Нормуродов Д., Исабеков Б., Исмаилов У. “Эртош дўлана” ёдгорлигида олиб борилган археологик тадқиқотлар //Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар /тўплам; масъул муҳаррир Ф.А.Максудов; Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Миллий археология маркази. – Самарқанд, 2020. – Б.153-162.
11. Сорокин С.С. Некоторые вопросы происхождения керамики катакомбных могил Ферганы //СА. – Москва, 1954. – № 20. – С.134.

12. Смагулов Е.А. К реконструкции погребального обряда южного Казахстана раннесредневековой эпохи новые исследования по археологии Казахстана труды научно-практической конференции «Маргулановские чтения - 15». – С 40-55.

13. Тереножкин А.И. Рец. на работу Г.В. Григорьева на Каунчитепе. – Уз ФАН СССР, вып. 8. 1940. – С. 81-84.

14. Толстов С.П. К вопросу о датировке культуры Каунчитепе // ВДИ. – Москва, 1946. – № 1. – С. 175-176.

15. Филанович М.И. Шаштепа – древнейшее поселение оседлых земледельцев на территории Ташкента /У истоков древней культуры Ташкента. – Тошкент, 1982. – С. 91-124.